

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI (1946–1949-YILLAR)

*Tishabayeva Iroda Rasulovna, Farg'ona davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasida dotsenti*

TRAINING OF PERSONNEL FOR THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM (1946–1949)

*Tishabayeva Iroda Rasulovna, Ferghana State Technical University
Associate Professor of the Department of Social Sciences and Sports*

ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (1946–1949 ГОДЫ)

*Тишабаева Ирода Расуловна, доцент кафедры социальных наук
и спорта Ферганского государственного технического
университета*



<https://orcid.org/0009-0001-3081-8917>

e-mail:
irodaxontishabayeva@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada 1946–1949-yillar oralig'ida O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada ushbu muassasalarning faoliyati, kadrlar tayyorlash tizimida yuz bergan islohotlar, qisqa muddatli kurslardan doimiy o'quv tizimiga o'tish jarayoni hamda ayollarni pedagogik kasblarga keng jalb etish masalalari tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, maktabgacha ta'lim, pedagog kadrlar, pedagogika bilim yurti, tarbiyachi, o'quv kurslari, kadrlar siyosati, urushdan keyingi davr, ta'lim tizimi, davlat siyosati.

Abstract: This article analyzes the process of training teaching staff for the preschool education system in the Uzbek SSR during the years 1946–1949 and its distinctive features. The study examines the activities of educational institutions, reforms in the teacher training system, the transition from short-term courses to a permanent educational structure, and the broad involvement of women in pedagogical professions.

Keywords: Uzbek SSR, preschool education, teacher training, pedagogical college, educator, professional development, post-war period, education system, state policy.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс подготовки педагогических кадров для системы дошкольного образования в Узбекской ССР в 1946–1949 годах и его особенности. Рассматриваются деятельность педагогических учреждений, проведённые реформы в системе подготовки кадров, переход от краткосрочных курсов к постоянной системе профессионального обучения, а также широкое привлечение женщин к педагогическим профессиям.

Ключевые слова: Узбекская ССР, дошкольное образование, педагогические кадры, педагогическое училище, воспитатель, профессиональная подготовка, послевоенный период, образование, государственная политика.

KIRISH. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri – maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish va keng qamrovda rivojlantirishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "Bu borada,

avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga

mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q"[9].

Ushbu ilmiy maqolada biz o'z nazarimizni tarixiy jihatdan chuqurlashtirib, 1946–1949-yillar davrida O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini o'rganamiz. Tadqiqotimizning maqsadi – o'sha davrda pedagog mutaxassislarni tayyorlashdagi tashkiliy, metodik va siyosiy omillarni aniqlash va ularning maktabgacha ta'lim tizimining bugungi holatiga qanday zamin bo'lib xizmat qilganini baholashdir.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI. Tadqiqotda 1946–1949-yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, ilmiy xolislik tamoyillari asosida o'rganildi. Ushbu metodlar tarixiy jarayonlarni uzviylikda tahlil qilish, pedagogik siyosatdagi o'zgarishlarni aniqlash hamda o'quv-tarbiya tizimidagi tashkiliy islohotlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotda tarixiy tahlil metodi orqali 1945–1949-yillarda pedagog kadrlar tayyorlashning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillari o'rganildi. Qiyosiy-mantiqiy tahlil yordamida urushdan keyingi yillardagi kadrlar siyosati ilgari amal qilgan tizim bilan solishtirildi.

Manbashunoslik jihatidan tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, O'zbekiston SSR Xalq ta'limi vazirligi hujjatlari, pedagogika bilim yurtlari faoliyatiga oid hisobotlar, o'quv dasturlari, nashr etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda o'sha davrda chop etilgan davriy matbuot materiallariga tayandi.

Mazkur mavzu tarixshunosligida sovet davri pedagog olimlarining ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, M. Badalova o'zining "O'zbekiston SSRda maktabgacha tarbiyaning rivojlanish tarixidan (1946-1965-yy)" nomli dissertatsiya ishida maktabgacha ta'limda tarbiyaviy ishlarning mazmuni va metodikasini tahlil qilgan[3]. O.Ishanxodjayeva esa O'zSSR Xalq maorifi vazirligining tegishli buyruqlariga asosan barcha hududlarda seminarlar va kurslar tashkil etilishi masalalarini yoritgan[2]. Shu jumladan, H Egamberdiyeva o'zining "Ijtimoiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanmasida sovet

davridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etgan[1].

Shu asosda tadqiqotning o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, 1946–1950-yillardagi kadrlar tayyorlash tizimi sovet pedagogikasida asosan amaliy-pedagogik yo'nalishda o'rganilgan bo'lib, mazkur jarayonning ijtimoiy-siyosiy va tarixiy tahliliga yetarli e'tibor qaratilmagan. Shu bois mazkur mavzuni tarixiy va tizimli yondashuv asosida qayta tahlil etish hozirgi kunda ilmiy zarurat sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda SSSR, jumladan O'zbekiston SSRda ayollarni mehnatga safarbar etish siyosati kuchaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalari soni yildan yilga ortdi. Ammo bu jarayon ularni pedagogik kadrlar bilan ta'minlash muammosini keskin kun tartibiga olib chiqdi.

O'rganilayotgan davrda maktabgacha tarbiya muassasalari uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha olib borilgan barcha ishlar SSSR Kommunistik partiyasi (KPSS) va Sovet hukumati tomonidan tashkil etilgan va boshqarilgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'sha yillardagi partiyaviy hujjatlar asosan tarbiyachilar kadrlarini tayyorlash va ularni qayta tayyorlash masalalariga qaratilgan edi. Kadrlar yetishmovchiligi muammosini qisqa muddatlarda bartaraf etish uchun qishloq maktabgacha tarbiya muassasalari pedagog kadrlarini tayyorlash o'quv kurslari tashkil etilgan. Bu kurslarda bir yarim oy, ikki oy va uch oylik rejalar asosida bo'lajak tarbiyachilar tayyorlangan[2.119]. 1945-yil fevral oyida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan qarorga asosan maktabgacha ta'lim tizimi uchun tarbiyachilar tayyorlash kurslarini tashkil etishga ruxsat etilgan. Ushbu qarorga muvofiq, uch oylik kurslar orqali 200 nafar tarbiyachini tayyorlash rejalashtirilgan edi[4.7].

Nazorat idoralari tomonidan tayyorlangan hujjatlarga ko'ra, 1945-yil davomida 2000 nafar tarbiyachi malaka oshirish kurslarini tamomlagan. Xususan, bir oylik kurslar: kolxoz bog'chalari va bolalar maydonchalarida faoliyat yuritayotgan 1400 nafar tarbiyachilar uchun o'tkazilgan. Ikki oylik kurslarda esa 23696 nafar tarbiyachilar qatnashgan[4.66]. Bu raqamlar maktabgacha

ta'lim tizimi xodimlari malakasini oshirish bo'yicha ishlar faollashganini ko'rsatadi.

Mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi sharoitida tezkor ehtiyojni qoplash maqsadida qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etildi. 1945-yilda 3 oylik kurslarda O'zSSR Xalq maorifi vazirligi 172-sonli buyruqni chiqardi. Unga muvofiq, barcha hududlarda seminarlar va kurslar tashkil etildi [5.285]. 1946-yil 27-fevralda SSSR Ministrlar Soveti tomonidan qabul qilingan 204-sonli "Kolxozlardagi bolalar muassasalari faoliyatini yaxshilash to'g'risida"gi qaror asosida O'zbekiston SSR Xalq maorifi Ministrligi tarbiyachilarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada mustahkamlashga kirishdi [6.22]. Shu asosda, bolalar bog'chalarida seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi.

O'zbekiston SSR Xalq maorifi vazirligi tomonidan 1947-yilda bolalar bog'chalari tarbiyachilarini tayyorlash uchun 3 oylik maxsus kurslar tashkil etildi. Shu bilan birga, o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari qoshida 1,5 oylik malaka oshirish kurslari faoliyat ilib bordi. Tuman va viloyat xalq ta'limi bo'limlari metodistlari va inspektorlari uchun 1 oylik kurslar o'tkazildi [7.15]. 1948-yildan boshlab Toshkentdagi maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtida ilk bor sirtqi bo'limning ochilishi tizimli yechim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. 1950-yilga kelib respublika miqyosida maktabgacha tarbiya uchun tarbiyachi-pedagoglar quyidagicha tayyorlandi: Toshkent pedagogika bilim yurti – 472 nafar, Samarqand pedagogika bilim yurti – 232 nafar, Toshkent sirtqi pedagogika bilim yurti – 107 nafar [3.43]. Bu ko'rsatkichlar nafaqat ta'lim tizimini kuchaytirishga xizmat qilgan, balki o'z vaqtida ijtimoiy-iqtisodiy talablarni ham qondira olgan.

1949-yil 25-fevralda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan "Kolxozchilarni bahorgi ekin ekish mavsumida madaniy va tibbiy-sanitariya xizmatlari bilan ta'minlash chora-tadbirlari" haqida 268-son qaror qabul qilindi. Shunga binoan 1949-yil 11-martda O'zSSR Xalq maorifi vazirligi 172-sonli buyruqni chiqardi. Unga muvofiq, barcha hududlarda seminarlar va kurslar tashkil etilib, kolxozlardagi bolalar

maydonchalari tarbiyachilarini tayyorlash jarayoni amalga oshirildi [2.119].

XULOSA. Urushdan keyingi yillarda mamlakatda maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini qayta yo'lga qo'yish, ularni malakali tarbiyachilar bilan ta'minlash dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Aynan 1946–1949-yillarda pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni qisqa muddatli kurslardan tizimli o'quv yurtlariga o'tish orqali shakllandi, o'quv dasturlarining mazmuni boyitildi, tarbiyachilar tayyorlashning amaliy va nazariy asoslari mustahkamlandi. Ayollarni pedagogik kasblarga jalb etish, ularning kasbiy malakasini oshirish va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish bu davrning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini yanada oshirdi. Shu tariqa, kadrlar tayyorlash tizimi nafaqat ta'lim sifatini yuksaltirishga, balki ayollar mehnat faolligini oshirishga ham xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – Б. 30.
2. Ишанходжаева О. Педагогическое основы становления и развития общественного дошкольного воспитания в Узбекской ССР (1924-1980 гг.) /Диссертация на соискание уч. степени доктора педагогических наук – Ташкент, 1990. – С. 119.
3. Бадалова М. Из истории развития дошкольного воспитания в Узбекской ССР (1946-1965 гг.). – Дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. – Ташкент, 1974. – С. 43.
4. O'zMA, 94-fond, 4-ro'yxat, 4710-ish, 7, 66-varaqlar.
5. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 4781-ish, 285-varaq.
6. O'zMA, 94-fond, 4-ro'yxat, 4799-ish, 22-varaq.
7. O'zMA, 94-fond, 5-ro'yxat, 4795-ish, 15-varaq.
8. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 460-ish, 155-156-varaqlar.
9. <https://kun.uz/news/2022/11/15/sarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubhayoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida?utm>